

перспективе можно прогнозировать усиление роли ESG-факторов в оценке кредитных рисков и инвестиционной привлекательности компаний, что будет способствовать более глубокой трансформации финансового сектора и его интеграции в международные рынки капитала.

### **Список использованной литературы:**

1. Пресс-служба, Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/66567-zbekiston-respublikasining-demografik-k-rsatkichlari-ra-amlarda-4>

2. Всемирный индекс разработки последних данных Организации Объединенных Наций <https://www.worldometers.info/world-population/uzbekistan-population>

3. Muhammad Caezar Amin. Integrating ESG Factors into Sustainable Finance: Current Practices and Future Directions <https://moderndiplomacy.eu/2024/05/10/integrating-esg-factors-into-sustainable-finance-current-practices-and-future-directions>

4. Zhang, J. (2024). Research on the Impact of ESG Rating Divergence on Financial Markets <https://aemps.ewapub.com/article/view/17837>

5. Steve Johnson. EU green rules fail to boost funds' ESG credentials, research finds. Financial Times <https://www.ft.com/content/75355371-12a7-4063-9e41-cdd305d2abfe>

6. Simon Jessop and Ross Kerber (2026)., Rejection of Texas law blacklisting 'woke' BlackRock could challenge anti-ESG laws in other states <https://www.reuters.com/legal/government/rejection-texas-law-blacklisting-woke-blackrock-could-challenge-anti-esg-laws-2026-02-10>

7. David Ricketts (2026)., ESG fund revenue nosedives in Europe amid investor exodus., Financial News <https://www.fnlondon.com/articles/esg-fund-revenue-nosedives-in-europe-amid-investor-exodus-e10d26be>

8. Сардор Махмудов (2025)., Enter Engineering PTE. LTD. Влияние ESG-факторов на развитие финансового рынка Узбекистана. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal <https://sci-p.uz/index.php/editions/article/view/2266>

## **“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA ESG INDIKATORLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi**

*O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*


So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va ijtimoiy mas‘uliyat masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonlarda ESG tamoyillari — ya‘ni atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas‘uliyat va korporativ boshqaruvning samaradorligi — davlatlar,

investorlar hamda biznes subyektlari faoliyatini baholashning muhim mezoniga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham global barqaror rivojlanish tendensiyalaridan chetda qolmagan holda, uzoq muddatli strategik maqsadlarni belgilashda ESG tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni mamlakatni uzoq muddatli va barqaror rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning zahirida ESG tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish hamda "Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish" hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni keskin oshirish va ekologik vaziyatni tubdan takomillashtirish kabi masalalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.[1] Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, unda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirish hamda issiqxona gazlari emissiyasini cheklash asosiy vazifalar sifatida qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, CO<sub>2</sub> emissiyasining yillar kesimidagi dinamikasi mazkur strategiya ijrosini baholashda asosiy monitoring ko'rsatkichi vazifasini bajaradi: 2015–2024 yillar oralig'ida O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan CO<sub>2</sub> chiqindilari avvalgi yillarga nisbatan tor diapazonda tebranib, umumiy hisobda barqarorlikka moyil, biroq struktura jihatidan qarama-qarshi tendensiyalarni namoyon etgan. Ushbu davrda ko'rsatkichlar 3.36 – 3.83 tonna oralig'ida shakllanib, avvalgi 10 yilliklardagi darajalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada past bo'lsada, ekologik jihatdan xavfsiz daraja sifatida baholab bo'lmaydi.

#### CO<sub>2</sub> emissions per capita

Carbon dioxide (CO<sub>2</sub>) emissions from burning fossil fuels and industrial processes<sup>1</sup>. This includes emissions from transport, electricity generation, and heating, but not land-use change<sup>2</sup>.




Data source: Global Carbon Budget (2025); Population based on various sources (2024)  
OurWorldinData.org/co2-and-greenhouse-gas-emissions | CC BY

### 1830 – 2024 yillarda O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) chiqindilari.[2]

Dastlabki 2015 – 2017 yillarda ko'rsatkich nisbatan pasayish tendensiyada qayd etildi. Bu holat iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan

dastlabki institutsional islohotlar, ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik yangilanishlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi hamda energiya iste'moli tarkibida tabiiy gazning ustunligi bilan izohlanadi. 2018–2020 yillarga kelib CO<sub>2</sub> chiqindilarida nisbiy barqarorlashuv va qisqa muddatli tebranishlar kuzatildi. Mazkur davr iqtisodiy liberallashtirish, sanoat va infratuzilma loyihalarining faollashuvi bilan bir qatorda, pandemiya omili tufayli ishlab chiqarish va transport faoliyatining vaqtinchalik cheklanishi ham ta'sir ko'rsatgan hisoblanadi. Ammo, so'nggi 5 yillikda ko'rsatkichlarda yana qisman o'sish tendensiyasi kuzatildi va bu holat iqtisodiy faollikning tiklanishi, sanoat ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi va elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortishi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid dastlabki loyihalar ishga tushirilganligiga qaramay, ularning umumiy energiya balansidagi ulushi hali yetarli darajada emissiyalarni sezilarli qisqartirish imkonini bermaydi.

O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan CO<sub>2</sub> chiqindilarining uzoq muddatli dinamikasi mamlakatning barqaror rivojlanish yo'nalishlari, xususan ESG tamoyillarining E komponenti hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ekologik va institutsional ustuvorliklarni baholash uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ko'rsatkichlarning 3 – 3.5 tonna atrofida saqlanib qolayotgani O'zbekistonning energiya balansini hanuzgacha qazilma yoqilg'ilarga yuqori darajada bog'liqligini anglatadi. ESG nuqtayi nazaridan bu mamlakat uchun ekologik risklar — ya'ni, karbon narxlash mexanizmlarining joriy etilishi, xalqaro "yashil" standartlarning kuchayishi va investorlar tomonidan qo'yiladigan talablarning ortishi bilan bog'liq ehtimoliy bosimlarni kuchaytiradi.



### ESG tamoyillarining bugungi kundagi istiqbollari<sup>54</sup>

<sup>54</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

ESG tamoyillarining bugungi kundagi istiqbollari ularning global moliyaviy va iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylanishi bilan tavsiflanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ESG standartlariga tizimli moslashish nafaqat ekologik va ijtimoiy mas’uliyat masalasi, balki investitsion jozibadorlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lishi kutilmoqda.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-sonli farmoni*
2. <https://ourworldindata.org/profile/co2/uzbekistan>
3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4477-sonli qarori*
4. *Global Sustainable Investment Alliance (GSIA). (2023). Global Sustainable Investment Review.*

## **ТРАНСПОРТ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МОЛИЯ БОЗОРИНИНГ РОЛИ ВА СТРАТЕГИК ИСТИҚБОЛЛАРИ**

*и.ф.н., профессор, Раҳмонов Расул Неъматович,  
Тошкент шаҳридаги Вебстер университети ижрочи директори*

**Аннотация.** *Мазкур мақолада транспорт инфратузилмасини ривожлантиришда молия бозорининг иқтисодий моҳияти, унинг инвестиция жараёнларидаги ўрни ҳамда замонавий молиялаштириш механизмлари илмий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шунингдек, транспорт соҳасини молиялаштиришда молия бозорини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари ва стратегик истиқболлар ёритилган.*

**Калит сўзлар:** *молия бозори, транспорт инфратузилмаси, инвестиция, капитал бозори, давлат-хусусий шериклик, стратегик ривожланиш.*

Транспорт инфратузилмаси мамлакат иқтисодиётининг барқарор фаолият юритишини таъминловчи асосий тармоқлардан бири ҳисобланади. Самарали транспорт тизими ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий алоқаларни мустаҳкамлайди, ташқи савдо ҳажмларини оширади ва ишлаб чиқариш харажатларини камайтиради. Бироқ, транспорт инфратузилмасини барпо этиш ва модернизация қилиш катта ҳажмдаги молиявий ресурсларни талаб қилади. Шу нуқтаи назардан, транспорт инфратузилмасини ривожлантиришда молия бозорининг роли алоҳида аҳамият касб этади. Молия бозори инвестиция ресурсларини самарали қайта тақсимлаш, узоқ муддатли капитални шакллантириш ва стратегик